“JINOYAT PROTSESSIDA TORTISHUV TAMOYILINI AMALGA OSHIRISHDA HIMOYACHINING PROTSESSUAL IMKONIYATLARI: GERMANIYA VA AQSH TAJRIBASINING QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI”

“World Law” Advokatlik firmasi

Advokati ***Raximova Surayyo Islom*** **qizi**

Annotatsiya. Mazkur tezisda jinoyat protsessida tortishuv tamoyilining real samaradorligi himoyachining protsessual maqomi bilan bog‘liq holda qiyosiy-huquqiy jihatdan tadqiq etiladi. Germaniya va AQSh tajribasi asosida himoyachining kasbiy kompetentligi, mustaqilligi va samarali himoya huquqini ta’minlash mexanizmlari tahlil qilinib, ularning jinoyat protsessiga mos jihatlari aniqlanadi. Tadqiqot natijasida milliy modelni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: jinoyat protsessi, tortishuv tamoyili, himoyachi, advokat, protsessual maqom, samarali himoya, Germaniya, AQSh, qiyosiy-huquqiy tahlil.

Asosiy qism

Ilmiy adabiyotlarda himoya protsessual harakatlariga oid turli qarashlar mavjud, xususan, Y.Lubshevning fikricha, “Jinoyat ishlari bo‘yicha shaxsni himoya qilish bu davlat va jamiyat tomonidan yuridik kafolatlangan imkoniyatlarni jinoyat protsessual qoidalari doirasida boshqa shaxslarning erkinligi va odil sudlovning manfaatlarini buzmagan holda insonning xohish irodasiga mos ravishda amaliy foydalanishdir”.[1] Jinoyat protsessida tortishuv tamoyilining mavjudligi taraflarga protsessual huquqlarning formal ravishda teng berilishi bilangina cheklanmasligi lozim. Mazkur tamoyilning real mazmuni himoya tarafining o‘z huquqlaridan mustaqil, malakali va to‘sqinliksiz foydalanish imkoniyati bilan belgilanadi. Shu bois himoyachining protsessual maqomini takomillashtirish tortishuv tamoyilini amalda ta’minlashning muhim shartlaridan

[1] Лубшев Ю. Адвокат в уговлоном деле: Учеб -М.: Манускрипт, 1999.- С.

biridir. Huquqshunos olim Bazarova D.B. fikricha, himoyachining dastlabki tergovda ishtirokini kengaytirish ularga o‘z mijozining huquq va manfaatlarini himoya qilishdagi majburiyatlarini to‘liqroq bajarish imkoniyatlarini beradi. Shubhasiz, himoyachining tergov harakatlarida ishtirok etishining maqsadi yuqorida qayd etilgan vazifalari to‘liq amalga oshirilishini ta’minlashdir.[2]

Xorijiy tajriba ushbu masalaga turlicha yondashuvlar mavjudligini ko‘rsatadi. Germaniyada advokatlik kasbiga kirish yuqori darajadagi umumiy yuridik kvalifikatsiya bilan bog‘langan. DRiG §5 huquqshunoslik ta’limi, birinchi imtihon, tayyorgarlik xizmati va ikkinchi davlat imtihoni orqali sudyalik lavozimiga kasbiy layoqatni shakllantiradi, BRAO §4 esa umumiy qoida sifatida advokatlik kasbiga kirishni mazkur kvalifikatsiya bilan bog‘laydi. Mazkur modeldan kelib chiqadigan muhim xulosa shuki, himoyachining keng protsessual vakolatlari uning kasbiy kompetentligidan ajratib qo‘yilmaydi. Demak, tortishuvchanlikni kuchaytirish faqat himoyachining huquqlarini kengaytirish emas, balki ushbu huquqlardan samarali foydalanishga qodir professional subyektni shakllantirishni ham talab qiladi.

AQSh tajribasida esa asosiy e’tibor himoya huquqining konstitutsiyaviy kafolatlariga qaratilgan. AQSh Konstitutsiyasining VI tuzatishi jinoyat ishida shaxsning advokat yordamidan foydalanish huquqini hamda o‘z foydasiga guvohlarni chaqirish imkoniyatini kafolatlaydi. Keyingi sud amaliyotida ushbu huquq “effective assistance of counsel” - **samarali advokatlik yordami** konsepsiyasi bilan rivojlantirilgan. Xususan, Z.V.Makarova ta’biri bilan aytganda, oshkoralik prinsipi sudlov yurituvining mohiyati, uning tashkiliy g‘oyasi, tortishuvchanlik esa uning shaklidir.[3]

Shunday qilib, Germaniya tajribasi **“malakali himoyachi”**, AQSh tajribasi esa **“samarali himoya”** g‘oyasini institutsional jihatdan kuchaytiradi. Ularning umumiy jihati esa himoya huquqining faqat deklarativ mavjudligi bilan

[2] Базарова Д.Б. Адвокат как участник в досудебных стадиях уголовного процесса: Дис. … канд. юрид. наук. - Ташкент: Ташкентский государственный юридический институт, 2011. -62 б.

[3] Макарова З.В. Гласность уголовного процесса (концепция и проблемы). Автореф. дис... д.ю.н. Екатеринбург, 1996., -43 b.

cheklanmasdan, uning amalda ro‘yobga chiqarilishini ta’minlashga qaratilganidadir.

O‘zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligida ham himoyachining dalillarni to‘plash va taqdim etish vakolati nazarda tutilgan. Xususan, JPKning 87-moddasida himoyachining tegishli axborotga ega shaxslarni so‘rovdan o‘tkazishi, ularning roziligi bilan yozma tushuntirishlar olishi, shuningdek, davlat organlari va boshqa tashkilotlarga so‘rov yuborib, tegishli hujjat va ma’lumotlarni olishi mumkinligi belgilangan. Biroq mazkur vakolatlarning mavjudligi bilan ularni amalga oshirishning real samaradorligi o‘rtasida muayyan tafovut mavjud. Ayniqsa, himoyachi tomonidan to‘plangan materiallarning keyingi protsessual maqomi, ularni tekshirish va baholash mexanizmlarini yanada aniq belgilash zarurati mavjud. Shu jihatdan tortishuv tamoyilini “teng huquqlar” kategoriyasi bilangina emas, balki “teng protsessual imkoniyatlar” kategoriyasi orqali ham baholash maqsadga muvofiq. Bunda xorijiy tajribani milliy tizimga mexanik ravishda ko‘chirish maqsadga muvofiq emas. O‘zbekiston jinoyat protsessining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, Germaniyaning kasbiy tayyorgarlik tajribasi hamda AQShning samarali himoyani konstitutsiyaviy va protsessual kafolatlash yondashuvi milliy sharoitga moslashtirilishi lozim. Shu asosda O‘zbekiston uchun quyidagi uch elementli modelni taklif etish mumkin:

birinchidan, himoyachining kasbiy tayyorgarligi va amaliy kompetentligini kuchaytirish;

ikkinchidan, himoyachining dalil to‘plash va taqdim etish huquqlarini aniq protsessual mexanizmlar bilan ta’minlash;

uchinchidan, himoyachining qonuniy professional faoliyatiga to‘sqinlik qilishning oldini oluvchi va qilmishning og‘irligiga mutanosib javobgarlik mexanizmini takomillashtirish.

Shu bilan birga, javobgarlikni kuchaytirish ma’muriy va jinoyat-huquqiy choralarni aniq chegaralash asosida amalga oshirilishi lozim. Qasddan sodir etilgan, himoya huquqini jiddiy cheklaydigan va odil sudlov manfaatlariga sezilarli

zarar yetkazadigan holatlar uchun alohida jinoyat-huquqiy ta’sir choralarini belgilash masalasi ilmiy jihatdan asosli hisoblanadi.

Xulosa

Tadqiqot natijasida jinoyat protsessida tortishuv tamoyilining real samaradorligi taraflarga teng protsessual huquqlar berilishi bilangina emas, balki ushbu huquqlarni amalga oshirishning **real imkoniyati va institutsional kafolatlari** bilan belgilanadi, degan xulosaga kelindi. Jinoyat sudlov ishlaridagi tortishuv va ishning holatlarini to‘la, har tomonlama va xolisona tekshirilishini bir biriga qarama- qarshi qo‘yish uchun asoslar mavjud emas. Ma’lumki, tortishuv haqiqatni vujudga keltiradigan bahs hisoblanadi. Haqiqat tortishuv jarayonining maqsadi bo‘lsa, tortishuv unga erishish sharti, vositasidir. U yoki bu holatlarni aniqlashdagi tomonlarning tortishuvi ularning har biri bajaradigan funksiyadan kelib chiqib, jinoyat holatlari to‘la va har tomonlama tekshirilishini ta’minlaydi.[4] Germaniya tajribasi himoyachining kasbiy kompetentligini, AQSh tajribasi esa samarali himoya huquqining konstitutsiyaviy va protsessual kafolatlarini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi. Ushbu tajribalarning O‘zbekiston uchun ahamiyati ularni to‘liq ko‘chirishda emas, balki milliy jinoyat-protsessual tizimga mos bo‘lgan elementlarini uyg‘unlashtirishdadir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son)

2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi,21.04.2026-y., 03/26/1138/0397-son)

3. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 18.04.2026 й., 03/26/1131/0377-son)

4. United States Constitution. Sixth Amendment // Cornell Law School Legal Information Institute.

[4] To’laganova G.Z. “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va tortishuv prinsipi” o’quv qo’llanma, TDYU, -T.-2009., -150 b.

5. To’laganova G.Z. “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va tortishuv prinsipi” o’quv qo’llanma, TDYU, -T.-2009., -150 b.

6. Базарова Д.Б. Адвокат как участник в досудебных стадиях уголовного процесса: Дис. … канд. юрид. наук. - Ташкент: Ташкентский государственный юридический институт, 2011. -62 б.

7. Макарова З.В. Гласность уголовного процесса (концепция и проблемы). Автореф. дис... д.ю.н. Екатеринбург, 1996., -43 b.

8. Лубшев Ю. Адвокат в уговлоном деле: Учеб -М.: Манускрипт, 1999.-С.